



## STOMATOLOGIYA FANI, DOLZARBLIGI VA TIBBIYOTDAGI AHAMIYATI

Toshkent tibbiyot akademiyasi  
Stomatologiya yo‘nalishi 1-kurs  
talabasi Batirova Shaxlo Muxammad qizi

**Annotatsiya:** Ushbu maqola orqali stomatologiyaning kelib chiqish tarixi, stomatologlarning hayotimizdagi ahamiyati yoritib berilgan.

**Kalit so‘z:** Plomba, charxlash, emal, amalgama, protez, breket, umumiy salomatlik

**Annotation:** Introduction to dental science, the importance of dentists in our lives is highlighted through this article.

**Keyword:** Filler, sharpening, enamel, amalgam, prosthesis, bracket, general health

**Аннотация:** В этой статье рассматривается введение в стоматологическую науку, важность стоматологов в нашей жизни.

**Ключевые слова:** Пломба, заточка, эмаль, амальгама, протез, брекеты, общее состояние здоровья

Stomatologiya (yun. „stomatos“ — og‘iz va „logos“ — fan, ta’limot) — klinik tibbiyotning bir sohasi; og‘iz bo‘shlig‘i a‘zolari: til, lab, lunj, og‘iz shilliq pardalari hamda yuz-jag‘ tizimi va unga yondosh soha kasalliklarini, ularni keltirib chiqaradigan sabablarni va mazkur kasalliklarning oldini olish usullarini o‘rganadi. Tibbiyotni bir necha yillar asrlarga teng tarixiga qaramay, stomatologiya tibbiyotni eng yosh sohalaridan biri hisoblanadi. Stomatologiya o‘z tarixiy yo‘lini bosib o‘tishida, rivojlanishida yuz-jag‘ jarrohlari va tish shifokorlari katta rol o‘ynaganlar. Ma'lumki,



eramizdan 2500 yil avval Qadimgi Misrda tish davolashni amalga oshirganlar. Tish shifokorlarni ishlari, rivojlangan sharq mamlakatlarida keng tarqalgan. Xitoyda, Hindistonda va Vavilonda tish og'rig'ini qoldirish uchun har xil vositalardan foydalanganlar.

Gippokrat tish og'rig'ini qoldirish uchun qonn chiqarish, kuchsiz ko'ngil aynituvchi dori vositalar va maxalliy galampir va kvarsdan (achchiq tosh) foydalangan. XIV asrga kelib fransuz vrachi Gide Sholiak tish sug'uradigan asbob ixtiro qildi. XV asr oxirida italyan vrachi J.D. Arkale tishni oltin, qo'rg'oshin, qalay folgasi bilan plombalashni ko'rsatadi. XVIII asrda Fransiyada tish shifokorligi ajralib chiqib, xirurg-dantist mutaxassisligi berilib, unga alohida imtihon joriy etilgan. Bunda Pyer Fosharni xizmatlari bo'lib, u ilmiy tish shifokorligini asoschilardan biri hisoblangan. U klassik "Xirurg-dantist yoki tishlarni davolash" nomli asar yozgan. Pyer Fosharni bu kitobi XVIII asrda asosiy manba hisoblangan. Foshar tishlarni davolash uchun asbob-uskunalarni takomillashtirgan va yaratgan. U tishlarni charxlash uchun bormashinaga o'xshash borni aylantiruvchi asbobdan foydalangan. Tishlarni plombalash uchun har xil egilgan shtoferlardan foydalangan. Plombalovchi ashyo sifatida qo'rg'oshin, qalay va oltindan foydalangan. Davolangan tishlar 20-30 yil xizmat qilishi mmkinligini ta'kidlagan. 1770- yilda hozirgilarga yaqin plomba ashyolari paydo bo'la boshlagan. XIX asrda fransuz shifokorlari Arnazzan (1808) va Delabarr (1815) lar kariyes bo'shliqlarini davolash va plombalash usullarini taklif qilganlar. Delabarr emal pichoqlari bilan bo'shliqlariga ishlov bergan va pulpitlarni davolashda pulpani kuydirib, ustidan oltin falga bilan yopgan. Kuydirishda qizigan simni pulpaga tiqib maqsadga erishgan. Shu paytda, boshqa fransuz shifokori Darsse tarkibi 8 qism vismut, 5 qism qo'rg'oshin va 3 qism sink (rux) va yengil eruvchi metaldan bo'lgan plomba ashyosini yaratgan. Bu keng qo'llanilgan. Renar esa bunga bir qism simob qo'shib amalgamani yaratilishiga sababchi bo'lgan. 1819- yilda Bell birinchi bo'lib amalgamani kumush qipiqnlarni. kukunlari bilan simobni qo'shib tayyorlashni taklif etgan. 1859- yilda nemis tish shifokori Lippold misli amalgamani taklif etgan. Amalgamalar hozirda ham takomillashib, terapevtik stomatologiya amalyotida ma'lun sharoitlarda qo'llanilmoqda.



1836- yilda amerikalik tish shifokor Vud Spuner pulpani devitalizatsiyalash-jonsizlantirish, o'ldirish uchun margumush (mishyak) kislotasini qo'llangan. 1866- yilda Djoni Toms qo'l bormashinasidan foydalangan. 1868- yilda amerikalik shifokor Morrison oyoqli bormashinani yaratgan va uni butun dunyoga tarqatdi.

Bormashina bilan kariyes bo'shliqlarini charxlash, tish bo'shlig'ini ochish, ildiz kanallarini kengaytirish, tishlarning o'tkir qirralarni silliqdashda foydalanildi. Taniqli gistolog olimlardan Retsius, Kellikur, Ouen, Nasmit, Vedlya va boshqalar tish to'qimalarini anatomiya, gistalogiya, mikroskopik tuzilishini o'rgandilar. Toms kariyesni patologik-anatomik manzarasini o'rgandi. U pulpa yalig'lanishini o'tkir va surunkali turlarga bo'ldi va alveolada o'zgarish bo'lsagina tishni olish mumkin deb hisobladi. Ingliz olimlari Robinzon va Tomslar katta ishlarni amalga oshirdilar. Toms 1848-1855- yillarda pulpa va periodont tuzilishini yoritib berdi. XIX asr oxirida A.Vitsel (1878) pulpitalarni amputasion usul bilan davolashni taklif etdi. Miller 1885- yilda kariyes kasalligini kimyoparozitar kelib chiqish nazariyasini yaratdi. Shunday qilib, XVII asr oxirlarida XVIII asr boshlarida tibbiyot mutaxassislari orasida tish shifokorligi rivojlandi. Asosiy beriladigan yordam og'riq tishni sug'irish, olib tashlash bilan chegaralangan edi holos.

P.Foshar sun'iy tilla karonkani yaratish, kumushli amalgama bilan tishlarni plombalash kabi ishlarga asos soldi 1810- yillarda Rossiyada tish shifokorligi rivojlana boshlangan. 1923- yildan boshlab, institut direktori Aleksandr Ivanovich Evdokimov bo'lgan. 1935- yilda "Moskva O'g'uv stomatologiya instituti" ga aylantirilgan, ya'ni xuddi shu yildan boshlab "stomatologiya", "odontologiya" iboralari o'rniga "stomatologiya" so'zi bilan aytila boshlangan va tugatganlarni "shifokor-stomatolog" deb atay boshlashgan. Ushbu institutda 1937- yilda xirurgik (mudir A.I.Evdokinov), 1938- yilda terapevtik (mudir dos. Ya.S.Pekker), ortopedik (mudir M.S. Nemo- nov) stomatologiya kafedralar tashkil topgan. 1949- yil 20- sentabrda Moskva stomatologiya instituti (MSI) "Moskva tibbiyot stomatologiya instituti" (MMSI) ga aylantirilgan va



uning tarkibida davolash va boshqa fakultetlar ham ochilgan. Shu yildan boshlab, o'qish muddati 5 yil deb belgilangan, institutga yana A.I. Evdokimov rahbarlik qila boshlagan. 1954- yilda, o'sha paytdagi ToshMida xirurg-stomatolog, dotsent, Mixail Vladimirovich Paradoksovning stomatologiya fakultetini ochilishiga xizmat qo'shdi. Toshkent tibbiyot institutida maxsus stomatologiya kafedralari birinchi bor 1956- yilda ochildi. . Keyinchalik bunday kafedralar Samarqand, Andijon tibbiyot institutlarida, Toshkent vrachlar malakasini oshirish institutida ham ochildi, 1994-yilda Buxoro Davlat Tibbiyot instituti tashkil etilib, uning tarkibida stomatologiya fakultetining ochilishi stomatologiya fanining yanada ravnaq topishiga zamin yaratdi.

O'zbekistonda stomatologiya fani rivojiga A. G. G'ulomov, M. V. Paradoksov, A. T. Busigin, M. V. Busigina, shuningdek, V. A. Yepishev, S. A. Zufarov, M. M. Miryoqubov, E. U. Mahkamov, T. X. Safarov, M. V. Begmetov, M. I. Azimov, R. K. Yakubov, R. A. Amanullaev, A. A. Akbarov va boshqalar katta hissa qo'shganlar. Hozirgi zamon stomatologiya fani terapevtik, jarrohlik, ortopedik, bolalar stomatologiyasi, ortodontiya va yuz-jag' jarrohligi kabi bo'limlarni o'z ichiga oladi.

### **Stomatolog turlari:**

- Stomatolog-terapevtning asosiy faoliyat sohasi – bu kariesning oldini olish va davolash hamda uning asoratlarini bartaraf etish. Aynan terapevtga inson klinikaga birinchi marta tashrif buyurganda murojaat qiladi. Mutaxassis bemorni tekshiradi va ma'lum bir holatda qanday davolash usulini qo'llash mumkinligini aniqlaydi. Stomatolog-terapevt karies ta'sir qilgan bo'shliqlarga plombalar qo'yishi mumkin. Shuningdek, u milk kasalliklarini va og'iz bo'shlig'ida yuzaga kelgan yallig'lanish jarayonlarini davolash bilan shug'ullanadi. Terapevt ma'lum patologiyalarni tashxislashi va zarur bo'lsa, bemorni boshqa mutaxassisga yuborishi mumkin.



- Stomatolog-ortodontga tishlash muammolari yoki noto'g'ri joylashgan tishlar bo'lsa murojaat qilinadi. Ushbu mutaxassis tish qatoridagi kamchiliklarni tuzatish, tishlashni to'g'rilash va old tishlar, qirqish tishlar hamda azmalarni tekislash bilan shug'ullanadi. Zaruriyat tug'ilganda, ortodont jag'ning qolipini oladi, bu esa breketlar yoki alignerlar tayyorlash uchun ishlatiladi. Shifokor ushbu moslamalardan birini o'rnatadi va ularga qanday g'amxo'rlik qilish kerakligini tushuntiradi. Breket taqish davomida bemor muntazam ravishda ortodontga murojaat qilib, davolash jarayonini nazorat qilish lozim.

- Ortoped stomatolog tish protezlarini tayyorlash va tish qatorining yaxlitligini tiklash bilan shug'ullanadi. Agar bemor protez o'rnatishni xohlasa yoki tish yo'qotilgan bo'lsa, ortoped stomatologga murojaat qilishi kerak. Tish yo'qotilgandan keyin qancha erta ortopedga murojaat qilinsa, protezi shunchalik sifatli va qulay tayyorlash mumkin bo'ladi. Mutaxassis protez o'rnatish yoki chaynash funksiyasini tiklash uchun boshqa usullarni tanlash bilan shug'ullanadi.

- Bolalar stomatologi – bu 17 yoshga to'lmagan bemorlarning tishlarini davolash bilan shug'ullanuvchi mutaxassis. U bolalar jag'-tish apparatining shakllanish jarayonini yaxshi biladi, uning rivojlanish bosqichlarini inobatga oladi va o'z vaqtida muammolarni aniqlab, kerakli choralarni ko'radi.

Ko'pincha ota-onalar sut tishlaridagi kariesni davolashmaydi, chunki ular tushib ketishini kutishadi. Bu xato qaror, chunki agar sut tishi juda zarar ko'rsa, uning ostida joylashgan doimiy tish ham shikastlanishi mumkin.

- Xirurg stomatolog ambulator operatsiyalarni bajarish bilan shug'ullanadi. Odatda, tish olib tashlash zarur bo'lsa, terapevt bemorni xirurgga yuboradi. Biroq, xirurg bundan ham murakkab operatsiyalarni amalga oshirishi mumkin.

Masalan, shifokor:

Uzdachka plastikasi (til yoki lab uzdachkasini operatsiya qilish)

Tish ildizi sohasidagi jarrohlik muolajalari

Abseslarni ochish va davolash



Jagʻ suyagiga implantlar oʻrnatish

Uch shoxli nerv va jagʻ boʻgʻimlarini davolash

Stomatologiya bugungi kunda sogʻliqni saqlashning muhim yoʻnalishlaridan biri boʻlib, uning dolzarbligi bir nechta asosiy omillarga bogʻliq:

1. Tish kasalliklarining keng tarqalganligi

Karies dunyo boʻylab eng koʻp uchraydigan kasalliklardan biri boʻlib, har uch kishidan ikkisida uchraydi.

Parodont kasalliklari ham keng tarqalgan boʻlib, ular tish yoʻqotishning asosiy sabablaridan biri hisoblanadi.

2. Umumiy salomatlik bilan bogʻliqligi

Tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, ogʻiz boʻshligʻi kasalliklari yurak-qon tomir kasalliklari, diabet, hatto ayrim onkologik kasalliklar bilan bogʻliq boʻlishi mumkin.

Sogʻlom tishlar va milklar bakterial infeksiyalarning tarqalishini oldini olib, organizmning umumiy salomatligini yaxshilaydi.

3. Estetika va psixologik omillar

Chiroyli tabassum insonning oʻziga boʻlgan ishonchini oshiradi, ijtimoiy va professional hayotda muvaffaqiyat qozonishiga yordam beradi.

Zamonaviy ortodontik va estetik stomatologiya (breketlar, alignerlar, vinirlar) mijozlar orasida juda talabgir.

4. Profilaktika va taʼlimning ahamiyati

Maktab va bolalar bogʻchalarida stomatologik profilaktika tadbirlari bolalar tish sogʻligʻini yaxshilashda muhim rol oʻynaydi.



Odamlar orasida og‘iz gigiyenasi bo‘yicha xabardorlik oshgani tufayli, tish shifokorlariga murojaat qilish holatlari ko‘paymoqda.

Xulosa qilib aytganda stomatologiya nafaqat davolash, balki kasalliklarning oldini olish va umumiy salomatlikni taminlash vazifasini bajaradi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Terapevtik stomotologiya. 2004. Toshkent. M.Ziyayeva // [https://n.ziyouz.com/books/kollej\\_va\\_otm\\_darsliklari/tibbiyot/Terapevtik%20stomatologya%20\(M.Ziyayeva,%20R.Bahodirova\).pdf](https://n.ziyouz.com/books/kollej_va_otm_darsliklari/tibbiyot/Terapevtik%20stomatologya%20(M.Ziyayeva,%20R.Bahodirova).pdf)
2. Какая бывает специализация врачей стоматологов. 2021. Dental Hall // <https://dentalhall-str.ru/news/kakaya-byvaet-spetsializatsiya-u-vrachey-stomatologov/>
3. ТЕРАПЕВТИЧЕСКАЯ СТОМАТОЛОГИЯ Учебник для студентов медицинских вузов Под редакцией Е.В. Боровского. Медицинское информационное агентство Москва. УДК 616.31-085(075.8)